

EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE EDUCATION TECHNOLOGIES IN TRAINING OF SPECIALISTS

Turabekova Urxiya Mirzabekovna

Senior Lecturer, Department of Life Safety, Tashkent State Technical University.

t_urxiya@gmail.uz. +998901259808

Nizamova Dilrabo Odilovna

Senior Lecturer, Department of Life Safety, Tashkent State Technical University.

d_nizamova@mail.ru. +998933844612

Abstract:

The article covers the innovative cluster of pedagogical education, all types of education in the system of continuing education, the integrity of scientific and methodological structures, their shared functions, and the possibility of raising pedagogical innovations to a qualitatively new level in the field of life safety.

Keywords: pedagogical innovations, educational cluster, educational process, experimentation, new ideas, innovation, teaching methods, educational technologies.

Kirish

Ta'lim o'z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so'z bilan aytganda, hayot bilan bog'lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta'lim-tarbiya va iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi. Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir.

Kadrlar tayyorlashdagi asosiy tamoyillardan biri - bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyq'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi.

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash q'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik

faoliyatida ham yangi yo‘nalish «o‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Akademik A.N.Leontev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti – faoliyat, ikkinchi sharti – tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotiy kurashning asosiy shartidir[1]» - deb ta’kidlaydi.

Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir[2].

Uslub va usullar

Ta’lim tizimida mavjud kamchiliklarni o‘rganish va ularning tahlili shuni ko‘rsatdiki, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta’lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik hududda pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi va ta’lim sifatining pasayishiga sabab bo‘lgan. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik ta’lim innovatsion klasterini yaratish bilan bog‘liq yangi tizimni o‘zining ustuvor strategik yo‘nalishi sifatida belgilab oldi va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirdi[2,3]. Ushbu tizim yengil sanoat, qishloq xo‘jaligining qator tarmoqlari hamda iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali hisoblangan klaster usulini ta’lim jarayoniga tatbiq etishni nazarda tutadi. Darhaqiqat, ishlab chiqarish tarmoqlarida xomashyoni yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish hamda uni realizatsiya qilish ketma-ketligi zanjiri mavjud bo‘lib, ushbu ketma-ketlik pedagogik ta’lim tizimida ham inson kapitali ko‘rinishida mavjud[3]. Bu esa ishlab chiqarishda samarali bo‘lgan klaster modelini ta’lim tizimiga joriy etish nazariy jihatdan mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda pedagogik ta’lim innovatsion klasteri quyidagi vazifalarni bajarishini eslatib o‘tamiz:

- ta’lim muassasalari uchun zamonaviy bilim va malakaga ega pedagog kadrlarni tayyorlash;
- ta’lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;
- pedagogika sohasida ilmiy faoliyatni izchil yo‘lga qo‘yish;
- ta’limning asosiy (darslik) va yordamchi (lug‘atlar, qomuslar, elektron manbalar va b.) vositalari mazmun-mohiyatining ta’lim bosqichlari kesimidagi uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash;
- professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish;


– pedagogika sohasidagi ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻzlashtirish maqsadida yetakchi xorijiy OTMlarga stajirovkalarni amalga oshirish.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, taʼlim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya boʻla olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari oʻrtasidagi asosiy farqlarni koʻrsatib oʻtish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va koʻlami asos boʻlib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli boʻlsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega boʻlmasa, oʻz oldiga muayyan tizimdagi faqat baʼzi elementlarini oʻzgartirishni vazifa qilib qoʻygan boʻlsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan boʻlamiz[4]. Agar faoliyat maʼlum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan boʻlsa va uning natijasi oʻsha tizim rivojlanishiga yoki uning printsiplial oʻzgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: inovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, koʻlam va vaqt boʻyicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli boʻladi, maʼlum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subʼektlari pozitsiyalarini toʻla yangilaydi[4,5]. Bunda faoliyatning yangi yoʻnalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning oʻzi ham yangilanadi.

Olingan natijalar

Pedagogik taʼlim innovatsion klasteri uzluksiz taʼlim tizimidagi barcha taʼlim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi boʻlib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik taʼlim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga koʻtarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi oʻz tarkibiga kiruvchi taʼlimiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi taʼlim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy taʼlim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Pedagogik taʼlim rivojlanishining klaster tizimi taʼlim berish, oʻquv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, taʼlim va tarbiya uzviyligi bilan bogʻliq umumiy yoʻnalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yoʻnalishlar taʼlimni boshqarish va tashkillashtirish, taʼlim turlari va yoʻnalishlari oʻrtasida uzviylik va integratsiyani taʼminlash, oʻqitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yoʻnalishlarda xususlashadi (rasmga qarang).



Rasm. Ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyasi

O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq. Shu sababli klaster tizimining subyektlari sifatida innovatsion faoliyatning to'la bo'lishi va turdosh muassasalar bilan integratsiyani ta'minlash sifatida quyidagilar ishtirok etadi:

- talabalar, magistrantlar va doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;
- ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shimcha ta'limi tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;
- hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

– pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

– xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Keyingi yillarda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko'zgusi va samaradorlik mezonlari deb baholash mumkin.

Xulosa va takliflar

Pedagogik ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zarur.

Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo'lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi–loyihaga, loyihani – texnologiyaga aylantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Innovatsion faoliyat o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashq'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Леонтев А.Н. Дискуссия о проблемах деятельности // Деятельностный подход в психологии: проблемы и перспективы. — М., 1990
2. Ганиева М.А., Файзуллаева Д.М. Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами. Методик қўлланма / Серия “Ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида инновацион технологиялар”. – Т.: ТДИУ, 2013. – 95.
3. Файзуллаева Д.М., Ганиева М.А., Неъматов И. Назарий ва амалий ўқув машғулотларда ўқитиш технологиялари тўплами. Методик қўлланма / Ўрта махсус, касб-хунар таълимида инновацион таълим технологиялари сериясидан – Т.: ТДИУ, 2013. – 137 б.
4. Ишмухамедов Р. ва бошқалар “Таълимда Инновацион технологиялар”. -Т.: Истеъдод, 2010.-180 б.
5. Тожиева Д. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. –Т. “Фан ва технология”, 2007 й.